



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ijrosi to‘g‘risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori (keyingi o'rnlarda - Qaror) vazir o'rindbosarlari, boshqarma va bo'limlar, hududiy xalq ta'limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar direktorlari tomonidan rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuning eng yaxshi takliflarni tanlash va tender xarid qilish tartib-taomillarini majburiy tartibda elektron shaklda o‘tkazish to‘g‘risidagi talabi 2022-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kirganligi inobatga olinsin.

3. Qaror bilan tasdiqlangan “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom”da quyidagilar ma'lumot uchun qabul qilinsin:

davlat xaridlarini elektron shaklda o‘tkazishning umumiyligini qoidalari va shartlari;
xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari hamda davlat xaridlarini o‘tkazish mezonlari va tartiblari;

boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion orqali davlat xaridlarini amalga oshirishda tovarlarni yetkazib berish muddatlari;

eng yaxshi takliflarni tanlash va tender bo'yicha xarid qilish hujjalarda ishtirokchilarning asosiy benefitsiar mulkdor to‘g‘risidagi ma'lumotlarni oshkor etishi to‘g‘risidagi talab;

hadli kelishuv tartib-taomili orqali davlat xaridlarini amalga oshirish shartlari;
to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo'yicha davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi;

davlat buyurtmachilari tomonidan tuzilgan davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomalarning yagona reyestrini yuritish qoidalari.

4. Quyidagilar:

Xalq ta'limi vazirligi markaziy apparati huzuridagi tovarlar, ishlar va xizmatlar bo'yicha davlat xaridlarini o‘tkazish Xarid komissiyasi (keyingi o'rnlarda - Xarid komissiyasi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Xarid komissiyasi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirining 2020-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi markaziy apparati huzuridagi tovarlar, ishlar va xizmatlar bo‘yicha davlat xaridlari o‘tkazish Xarid komissiyasi tarkibiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi 218-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Vazir o‘rinbosari (T.Komilov), Davlat xaridlari bo‘limi boshlig‘i (Sh. Yeshnazarov), hududiy xalq ta’limi boshqarmalari hamda respublika budgetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va muassasalarning tegishli xodimlariga:

Xarid komissiyasi to‘g‘risidagi nizomning mazmun-mohiyati yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borish;

nizomga muvofiq faoliyat olib borilishi ustidan doimiy nazorat va monitoring olib borish;

hududiy xalq ta’limi boshqarmalari hamda respublika budgetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va muassasalarning tegishli xodimlarini davlat xaridlari sohasida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Moliya organlari hamda budjet tashkilotlarining moliya-hisob bo‘linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash o‘quv markazida muntazam ravishda malakasini oshirib borish **vazifalari yuklatilsin**.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalq ta’limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika budgetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va muassasalar rahbarlariga:

barcha ichki normativ hujjatlarni mazkur nizomga moslashtirish;

davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikni shaxsan tashkilot rahbari va xarid uchun mas’ul bo‘lgan xodimga yuklatish;

barcha turdag‘i davlat xaridlari “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunga hamda mazkur nizomga muvofiq tashkil qilinishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish vazifalarini amalga oshirsin.

8. Devonxona (D. Isxakova) ushbu buyruqni hududiy xalq ta’limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazilishini ta’milasin.

9. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari T. Komilov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

Toshkent sh.,
2022-yil “24”- may,
162-son



B. Saidov

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta’limi vazirining
2022-yil “24”- may
162-son buyrug‘iga
1-ILOVA

**Xalq ta’limi vazirligi markaziy apparati huzuridagi tovarlar, ishlar va
xizmatlar bo‘yicha davlat xaridlarini o‘tkazish Xarid komissiyasi
TARKIBI**

- | | | |
|------------------------------------|---|--|
| 1. T. Komilov | - | Xalq ta’limi vaziri o‘rinbosari, komissiya raisi |
| Xarid komissiyasi a’zolari: | | |
| 2. M. Miraxmedov | - | Yuridik bo‘lim boshlig‘i v.v.b., a’zo |
| 3. I. Siradjev | - | Moliya departamenti direktori, a’zo |
| 4. J. Shokirov | - | Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi boshlig‘i, a’zo |
| 5. Sh. Yeshnazarov | - | Davlat xaridlari bo‘limi boshlig‘i, a’zo |
| 6. M. Karabayev | - | Maktabdan tashqari ta’lim, sport va turizmni tashkil etish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo |
| 7. J. Xudoykulov | - | Ijro etuvchi apparat boshlig‘i o‘rinbosari, a’zo |
| 8. L. Saliyev | - | Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratini amalga oshirish sho‘basi mudiri,— a’zo |
| 9. * | - | Davlat xaridi bo‘yicha tashabbuskor boshqarma va bo‘limlar, a’zo |
| 10. J. Mannonov | - | Davlat xaridlari bo‘limi bosh mutaxassis, kotib (<i>ovoz berish huquqiga ega emas</i>) |

Izoh:

* Amalga oshiriladigan xaridlarning tegishliligi bo‘yicha tashabbuskor boshqarma va bo‘limlarning boshlig‘i, agar ular xarid komissiyasi tarkibida bo‘lsa, Davlat xaridi bo‘yicha tashabbuskor boshqarma va bo‘limlarning boshlig‘i o‘rinbosarlari yoki mutaxassislari Xarid komissiyasining a’zosi hisoblanadi.

Xarid komissiyasi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning o‘rniga tayinlangan yoki lavozim vazifasi yuklatilgan shaxs Xarid komissiyasi a’zosi hisoblanadi.

Qiymati eng kam ish haqining besh ming baravaridan ortiq miqdordagi davlat xaridlari o‘tkazilganda Xarid komissiyasi tarkibiga O‘zbekistan Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zinjiniring” respublika loyihalashtirish institutining vakillari o‘rnatalgan tartibda jalb etilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta’limi vazirining
2022-yil “24 ” may
162-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Xalq ta’limi vazirligi markaziy apparati huzuridagi tovarlar, ishlar va xizmatlar bo‘yicha davlat xaridlari o‘tkazish Xarid komissiyasi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - vazirlik) huzurida doimiy faoliyat ko‘rsatadigan xarid komissiyasini tuzish va davlat xaridlari tartib-taomillariga rioya etishni tartibga soladi.

2-bob. Xarid komissiyasining maqsadi va vazifalari

2. Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi ishtirokchilarning takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo‘yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g‘olibni tanlashdan iborat.

3. Xarid komissiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:
tanlov (tender) hujjatlarini kelishadi;
takliflar qabul qilinadigan muddatlarni belgilaydi;
takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilaydi;
takliflarni baholash mezonlarini belgilaydi;
taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta’minalash shaklini belgilaydi;
xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;
malaka tanlovini o‘tkazadi, agar tanlov (tender) hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo‘lsa;
xarid qilish tartib-taomillarini qonun hujjalari muvofiq amalga oshiradi;
xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari ijrochisini va zaxira ijrochisini belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

3-bob. Xarid komissiyasini shakllantirish tartibi

4. Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari g‘olibini tanlash to‘g‘risida qarorlar qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan kollegial organ hisoblanadi.

5. Xarid komissiyasi vazirlik huzurida doimiy faoliyat ko‘rsatadi hamda vazirlikning tegishli buyrug‘i bilan shakllantiriladi va tarqatib yuboriladi.

6. Xarid komissiyasi toq sonli a'zolardan iborat bo'ladi, uning a'zolari tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog'liq bo'ladi hamda olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin.

7. Xo'jalik faoliyati doirasida o'tkazilganda xarid komissiyasi davlat buyurtmachisining vakillari orasidan, zarur bo'lgan taqdirda ovoz berish huquqiga ega ekspertlar jalg etilgan holda shakllantiriladi.

8. Davlat xaridini tanlov o'tkazish orqali amalga oshirish uchun kamida besh nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi.

9. Davlat xaridini tender o'tkazish orqali amalga oshirish uchun kamida yetti nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi, komissiya tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zinjiniring" respublika loyihalashtirish institutining vakillari kiritilishi shart.

10. Xarid qilish loyiha faoliyati doirasida o'tkazilganda xarid komissiyasi vazifalarini belgilangan tartibda tashkil etiladigan loyihani amalga oshiruvchi guruh bajaradi, u xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazish natijalari to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

4-bob. Xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish

11. Vazirlik tanlov (tender) hujjatlarini ko'rib chiqish uchun tanlov (tender) o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasiga kiritadi.

12. Xarid komissiyasi o'z majlislarida tanlov (tender) hujjatlarini qonun talablariga muvofiqligini ko'rib chiqadi va quyidagilarni:

takliflar qabul qilinadigan muddatlari;

takliflarni ochish tartib-taomillari;

takliflarni baholash mezonnari;

taklif kiritish tartibi, hajmi va uni ta'minlash shaklini belgilaydi.

13. Tanlov (tender) hujjatlari xarid komissiyasi tomonidan kelishilgandan so'ng tanlovnini (tenderni) o'tkazish haqida qaror qabul qilinadi.

14. Tanlov (tender) hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganidan so'ng, xarid komissiyasi tomonidan tanlov (tender) hujjatlari qayta ko'rib chiqiladi.

15. Xarid komissiyasi tomonidan o'z vazifalarini bajarish jarayonida qabul qilingan qarorlar bayon bilan rasmiylashtiriladi va yig'ilishda ishtirok etayotgan barcha a'zolar tomonidan imzolanadi hamda Xarid komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

16. Vazirlik xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilgan tanlov (tender) hujjatlarini o'zining imzosi va muhri bilan tasdiqlaydi.

17. Zarur hollarda vazirlik xarid komissiyasi qarori asosida takliflarni berish muddatini uzaytirishga, shuningdek, ishtirokchilarga ularning takliflarini amal qilish muddatini muayyan davrga uzaytirish to'g'risidagi taklif bilan murojaat qilishi mumkin.

18. Agar takliflar berish muddati tugagan paytda xarid komissiyasi tomonidan tanlov (tender) ishtirokchilaridan tanlov (tender) hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga

mos keladigan kamida ikkita taklif olingan bo'lsa, tanlov (tender) o'tkazilgan deb topiladi.

19. Tovarga (ishga, xizmatga) nisbatan baholash shartlari, mezonlari va talablarni o'zgartirish zarurati paydo bo'lganda xarid komissiyasi asoslarni keltirgan holda tegishli qaror qabul qiladi.

20. Tanlov ishtirokchilarini tomonidan berilgan takliflar solingan konvertlar xarid komissiyasi yig'ilishida ochiladi.

21. Tender ishtirokchilarining takliflari mavjud bo'lgan konvertlarini ochish xarid komissiyasi majlisida ikki bosqichda amalga oshiriladi.

22. E'londa tanlovnin o'tkazish vaqtida sifatida ko'rsatilgan vaqtida xarid komissiyasi tanlov ishtirokchilarini tomonidan berilgan takliflar solingan konvertlarni takliflarni baholash uchun ochadi. Tanlov ishtirokchisining vakolatli vakili konvertlarni ochish tartib-taomili chog'ida hozir bo'lishga haqli.

23. Takliflar solingan konvertlarni ochishda ularda barcha hujjatlarning mavjudligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligi tekshiriladi. Tegishli hujjatlar konvertda mavjud bo'lmagan holatda, xarid komissiyasi ushbu taklifni ko'rib chiqish va baholashga qo'ymaslikka haqli.

24. Agar taklifni kiritgan tanlov (tender) ishtirokchisi Qonunda belgilangan talablarga mos kelmasa yoxud tanlov (tender) ishtirokchisining taklifi tanlov (tender) hujjatlari talablariga mos kelmasa, xarid komissiyasi taklifni rad etadi.

25. Tender komissiyasi takliflarni ko'rish natijasida ularning hamma takliflari rad etilganda yoki takliflardan faqat biri talabga muvofiq kiritilgan taqdirda tender o'tkazilmagan deb topiladi.

26. Xarid komissiyasi g'olibni aniqlash uchun rad etilmagan takliflarni tanlov (tender) hujjatlarida qayd etilgan mezonlar asosida baholashni amalga oshiradi.

27. Tanlov (tender) hujjatlarini baholash maqsadida xarid komissiyasi komissiya a'zolari va ekspertlardan iborat bo'lgan baholovchi guruh tuzishga haqli.

28. Baholash paytida xarid komissiyasi tanlov (tender) ishtirokchilaridan takliflari bo'yicha tushuntirishlar so'rashga haqli. Mazkur jarayon rasmiy ravishda yozma shaklda tanlov (tender) tashkilotchisi orqali belgilangan tartibda olib boriladi. Tushuntirish jarayonida taklifning mohiyati, shuningdek, narxi yuzasidan biror-bir o'zgartirishlarga yo'l qo'yilmaydi.

29. Tanlov ishtirokchisining konvertini ochishda xarid komissiyasi tomonidan tanlov taklifining malakaga oid, texnik va narx qismi bo'yicha o'rganish o'tkaziladi. Xarid komissiyasining tanlov takliflarining texnik va narx qismini baholash haqidagi qarori tanlov g'olibini aniqlash haqidagi bayonnomada qayd etiladi.

30. Xarid komissiyasi tomonidan tender ishtirokchilarining texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar va boshqa resurslarga oid ma'lumotlar o'rganiladi va texnik qismi baholanadi. Tender komissiyasining tender taklifining texnik qismini baholash bo'yicha qarori bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi, bayonnomada tenderning birinchi bosqichi g'oliblari aniqlanadi. Tender ishtirokchisining vakolatli vakili takliflar solingan konvertlarni ochish tartib-taomilida hozir bo'lishga haqli.

31. Tenderning birinchi bosqichi g'oliblari tenderning ikkinchi bosqichiga qo'yiladi. Tenderning ikkinchi bosqichida taklifning narxga oid qismi ochiladi va baholanadi. Xarid komissiyasining tender taklifining narxga oid qismini baholash bo'yicha qarori bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi, bayonnomada tenderning

ikkinchi bosqichi g‘olibi aniqlanadi. Tender ishtirokchisining vakolatli vakili takliflar solingen konvertlarni ochish tartib-taomilida ishtirok etishga haqli.

32. Xarid komissiyasi ijrochini va zaxira ijrochini aniqlaydi yoki tanlovni (tenderni) o‘tkazilmagan deb topadi.

33. Agar tanlov (tender) hujjatlarida tanlovning (tenderning) har bir tovari (ishi, xizmati) xarid qilish tartib-taomilining alohida loti sifatida ko‘rib chiqilishi nazarda tutilgan bo‘lsa, xarid komissiyasi g‘olibni tanlovning (tenderning) har bir loti bo‘yicha aniqlaydi.

34. Xarid komissiyasining umumiy sonidan kelib chiqib, ko‘pchilikning ovozi bilan qaror qabul qilinadi.

35. Takliflarni ko‘rib chiqish va baholash natijalari takliflarni ko‘rib chiqish hamda baholash bayonnomasida qayd etiladi. Takliflarni ko‘rib chiqish va baholash bayonnomasi xarid komissiyasining barcha a’zolari tomonidan imzolanadi hamda undan olingan ko‘chirma u imzolangan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida portalda e’lon qilinadi.

5-bob. Xarid komissiyasi huquq va majburiyatlar

36. Xarid komissiyasining majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

o‘z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirish;

odob-axloq qoidalariga rioya etish;

g‘olib aniqlanmagunicha davlat xaridi ishtirokchilari bilan buyurtmanomalar (tender takliflari) yuzasidan muzokaralar o‘tkazmaslik;

xarid qilish tartib-taomillari davomida ma’lum bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor etmaslik;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajarishi mumkin.

37. Xarid komissiyasi quyidagi huquqlarga ega:

konvert (taqdim etilgan taklif) ichida tegishli hujjatlar mavjud bo‘lmaganida ushbu taklifni ko‘rib chiqilishiga va baholanishiga yo‘l qo‘ymaslik;

davlat xaridlariga oid qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda ishtirokchini tanlovdan (tenderdan) chetlatish;

zarurat bo‘lganida davlat xaridlariga oid qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda va tartibda vazirlik rahbariyatiga ekspertlarni (ekspert tashkilotlarni) jalb etish taklifi bilan murojaat qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lishi mumkin.

6-bob. Xarid komissiyasi ish reglamenti

38. Xarid komissiyasining ishiga rais rahbarlik qiladi, u xarid komissiyasi majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo‘yishni va xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlarni e’lon qiladi, shuningdek xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolaydi. Xarid komissiyasi raisi yo‘qligida uning vazifalarini o‘rnbosari bajaradi.

39. Xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning mas’ul kotibi tashkil etadi.

40. Xarid komissiyasining har bir a’zosi ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Xarid

komissiyasining raisi ovoz berishda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega emas.

41. Xarid komissiyasining majlisi o'tkazilishi uchun xarid komissiyasi a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi ishtirok etishi zarur.

42. Qaror xarid komissiyasi a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

43. Xarid komissiyalari a'zolarida ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqlar mavjud bo'lган taqdirda, xarid komissiyasining bunday a'zosi bu masala ko'tarilgan majlisda o'zini o'zi rad etishi va mazkur masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda bayonnomada qayd etiladi.

44. Agar xarid komissiyasiga mazkur komissiya a'zosining affillanganligi mavjudligi tegishli masala yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa, uning o'zi esa o'zini o'zi rad etmagan bo'lsa, bunday a'zoning mazkur masala bo'yicha ovoz berishiga yo'l qo'yilmaydi.

45. Agar xarid komissiyasiga tegishli masala bo'yicha ovoz bergen mazkur komissiya a'zosining affillanganligi mavjudligi qaror qabul qilinganidan keyin ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa, bunday a'zoning ovozi mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

7-bob. Xarid komissiyasi a'zolarining javobgarligi

46. Xarid komissiyasi a'zolarining davlat xaridlarini o'tkazish uchun Odob-axloq qoidalarida kasbga doir va xizmatdan tashqari faoliyatda odob-axloqning yagona prinsiplari va qoidalari, kasbiy tayyorgarlikka doir yagona talablar belgilanadi.

47. Xarid komissiyasi a'zolari xolis bo'lishi va xarid qilish tartib-taomili g'olibini tanlashdan shaxsan manfaatdor bo'lmashligi kerak.

48. Xarid komissiyasining a'zolari xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o'z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo'lishi mumkin bo'lgan istalgan shaxsiy nafni bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

49. Xarid komissiyasi ijrochini aniqlash tartib-taomillari davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning asosliligi va beg'arazligi uchun javobgar bo'ladi.

50. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining boshqa subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

51. Xarid komissiyasi a'zolari mazkur Nizomni buzganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

52. Xarid komissiyasi tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar barcha ishtirokchilar uchun majburiydir.